

BARRIERS TO IMPROVING THE QUALITY OF GENERAL SECONDARY EDUCATION AND MECHANISMS FOR ELIMINATING THEM

Arifxonova Laziza Faxritdinovna,

Director of Tashkent City General Secondary Education School No. 50

Abstract. This article analyzes the main problems encountered in the process of improving the quality of general secondary education, including the lack of material and technical resources, uneven teaching staff potential, low student motivation, weak parental cooperation, and insufficient introduction of modern technologies into the educational process.

Keywords: quality of education, general secondary education, pedagogical activity, innovative technologies, educational problems, management mechanisms, motivation.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim sifati nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati va ijtimoiy moslashuvini ham belgilab beradi. Shu bois, ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida mavjud qator muammolar sifatli ta'lim berishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu maqolada aynan shu to'siqlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Har bir mamlakat rivojida ta'lim sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega, zero ta'limda rivojlanish bo'lsa har bir sohada rivojlanish bo'ladi. Uzlüksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayoni ishtirokchilari ehtiyojlari, shuningdek, fan, ta'lim, ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda uzlüksiz ta'lim tizimining asosiy komponentlari hisoblangan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining integrativ tabiatiga mos ta'lim jarayonlari samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni tanlash, hamda pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida turli xil va keng istiqbolli yangiliklar kiritilmoqda. Xalq ta'limi tizimi ta'lim sohasining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Maktab ta'lim tizimi uzoq muddatli jarayon bo'lganligi sababli ham bunda har bir farzand harf tanishidan toki kasb tanlash jarayonigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 30-oktabr kuni videoselektor tashkil etilgan, videoselektor yig'ilishida ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'lib o'tdi va bu videoselektorda muallimning obro'-e'tiborini va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktab ta'lim tizimini keyingi bosqichlar bilan uzviy bog'liqligini taminlash, o'qituvchilarning ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ishlash uchun shart sharoitlarni yaratish, maktablarning moddiy texnik bazasini yangilash va ta'minlash masalalari alohida ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan chora tadbirlar xalq ta'limi tizimida turli ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga qaratilgan muassasalar – o'qitish darajasi ta'lim standartlaridan yuqori bo'lgan muassasalar (ixtisoslashtirilgan muassasalar) va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International



Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish ba boshqa islohotlar ko'zda tutilmoqda.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi. Ta'lim sohasidagi mavjud muommolar kamaytirishda ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalaridan biri.

Ta'lim sohasidagi islohotlar asosan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida olib borilmoqda, oldingidek ta'lim tizimida yodlashga asoslangan ta'lim emas mavzuning negizini tushungan o'quvchining bilimi haqiqiy bilim ekanligi isbotlanib kelinmoqda. O'quvchi va talaba yoshlar hozirda faqatgina yodlab emas o'rgangan bilimlarini amlada qo'llay olishlari eng asosiy maqsadimiz ekanligi va bunga erishish uchun harakat qilmoqdamiz. Buning uchun ixtisoslashtirilayotgan maktablar tashkil etilayotgani, xususi maktablar tashkil etilishiga keng imkoniyat yaratilgani ham bejiz emas.

STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslanga holda ta'lim jarayonlarini tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Yurtimizda ta'lim tizimida yuqori darajada sifatli ta'limga e'tibor qaratayotgan vaqtimizda ta'lim sohasidagi mavjud muommolar bunga to'siq bo'lmoqda. Misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- ta'lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etilishida tizimli va innovasioln faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan innovasion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyotga keng joriy etilmasligi;
- ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;
- ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab darajasida emasligi;
- o'quv dasturlari strukturasini yangilash va o'zgartirish zaruriyati; - o'quv jarayonini loyihalash mexanizmlarini kiritish zaruriyati;
- pedagogik va axborot texnologiyalarining hamda mustaqil ta'limning to'g'ri talqin etilmaganligi;
- maktab o'qituvchilarining ota-onalari bilan to'g'ri muloqot o'rnatish masalalari;
- ta'lim va tarbiya jarayonining barabar olib borilishidagi mavjud muammolar; - moddiy texnik bazaning yetarli emasligi;
- o'quv jarayonini loyihalash mexanizmlarini kiritish zaruriyati;
- pedagogik va axborot texnologiyalarining hamda mustaqil ta'limning to'g'ri talqin etilmaganligi;
- maktab o'qituvchilarining ota-onalari bilan to'g'ri muloqot o'rnatish masalalari;
- ta'lim va tarbiya jarayonining birgalikda olib borilishidagi mavjud muammolar;
- yosh mutaxassis kadrlardagi tajriba yetishmasligi;
- maktab o'quvchilaridagi davomat masalalari kabi bir qator muammolar ko'rib chiqilmoqda va ularni bartaraf etish maqsadida turli qarorlar ishlab chiqilmoqda.



Davlat kelajagi yoshlar qo'lida faqatgina ilmi, salohiyatli yoshlarga kelajagi porloq yurti yaratiladi, har qanday sohada yetakchi o'ringa chiqadi, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarib dunyo arenasiga olib chiqadi.

Yoshlarda sifatli va asosli, ularni faqatgina yoddan aytib bera oladigan emas, amalda qo'llay oladigan ta'lim bersakgina bu bizga samara beradi. Ta'lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to'g'ri tanlash bunda juda ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim beruvchi har bir pedagog o'z kasbi sevuvchi hamda yetarli bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Har bir mashg'ulot ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mashg'ulot sifati o'qitilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas'uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta'lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg'ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi.

Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo'lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog'langanligini tushuntira olsa, ma'lum maqsadga erishgan bo'ladi. Buning uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur. Ta'lim sifati oshirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, bu yo'ldagi maqsad va vazifalarni aniq belgilash, buning uchun jahonda tan olingan tajribalardan foydalanish, axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifati yaxshilashga xizmat qiladi, bu jarayon samaradorligini oshiradi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish, mazmunga e'tiborni qaratish ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
2. Jo'rayev R.X. Ta'lim sifati boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
3. Karimova M.M. Umumiy o'rta ta'lim sifati oshirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Shokirova, Rahmonova Manzura. "Management directions of human capital development". Academia Repository 4.10 (2023): 259-263.
5. Umarovna, Radjabova Gavxar. "Hozirgi zamon iqtisodiy taraqqiyotida tashkilotning innovatsion faoliyatining ahamiyati". Oriental Art and Culture 7 (2021): 185-189.
6. Abdullayeva D.B. O'qituvchilar malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2021, №3.

